

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI

**“NAVOIY VILOYATI NUROTA TUMANIDA QUUVATI 200 MVT BO'LGAN FOTOELEKTR
STANSIYASINI QURISH” INVESTITSIYA LOYIHASINI AMALGA OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI
TO'G'RISIDA**

Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ko'lamini kengaytirish, elektr energiyasi ishlab chiqarishda tabiiy gazdan foydalanishni kamaytirish hamda ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash, shuningdek, elektr energetika tarmog'iga to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish maqsadida:

1. Quyidagilar:

a) “Phanes Energy Nolding III B.V.” (Niderlandiya) kompaniyasi tomonidan (keyingi o'rinlarda — Investor) “Navoiy viloyati Nurota tumanida quvvati 200 MVt bo'lgan fotoelektr stansiyasini qurish” investitsiya loyihasi (keyingi o'rinlarda — Investitsiya loyihasi) doirasida O'zbekiston Respublikasida mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi “Quyosh-Energy” xorijiy korxonasi (keyingi o'rinlarda — Loyiha kompaniyasi) ta'sis etilganligi;

b) O'zbekiston Respublikasi Hukumati nomidan Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Investor va Loyiha kompaniyasi (keyinchalik bitimga qo'shilishini hisobga olgan holda) o'rtasida 2021-yil 2-aprelda Loyiha kompaniyasining majburiyatlarini nazarda tutuvchi investitsiya shartnomasi (keyingi o'rinlarda — Investitsiya shartnomasi) imzolanganligi hamda unga muvofiq Investor va Loyiha kompaniyasi:

Investitsiya loyihasini amalga oshirishning butun davri mobaynida Navoiy viloyati Nurota tumanida quvvati 200 MVt bo'lgan fotoelektr stansiyasini loyihalashtirishi, moliyalashtirishi, qurishi hamda ekspluatatsiya qilishi;

yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni o'z zimmlariga olgan holda, dastlabki baholash bo'yicha jami 179 mln AQSh dollari miqdorida to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishi;

v) “O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ va Investor o'rtasida 2021-yil 2-aprelda Elektr energiyasini sotib olish to'g'risida bitim (keyingi o'rinlarda — Elektr energiyasini sotib olish to'g'risidagi bitim) imzolanganligi hamda unga muvofiq:

Investor ushbu bitim bo'yicha o'z huquq va majburiyatlaridan Loyiha kompaniyasi foydasiga voz kechishi;

Loyiha kompaniyasi ishlab chiqarilgan elektr energiyasini “O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJga kafolatlangan tarzda sotish majburiyatini olishi;

Loyiha kompaniyasi qurilish davridagi o'z majburiyatlari lozim darajada bajarilishining ta'minoti sifatida 7,2 mln AQSh dollari miqdorida birinchi darajali xorijiy bank kafolatini taqdim etishi;

Investitsiya loyihasi doirasida fotoelektr stansiyasini yagona elektr energiyasi tarmog'iga ulash uchun quriladigan havo elektr uzatish tarmoqlari va boshqa elektr qurilmalarining Investor va Loyiha kompaniyasi tomonidan qurilishi hamda ushbu ishlar uchun sarflangan xarajatlar “O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ tomonidan 10 yil davomida oylik to'lovlar asosida qoplanishi;

“O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ 25 yil davomida elektr energiyasini kafolatlangan tarzda xarid qilish majburiyatini olishi va elektr energiyasi uchun to'lovni milliy valyutada amalga oshirishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Hukumati nomidan Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Investor hamda Loyiha kompaniyasi o'rtasida imzolangan Investitsiya shartnomasi tasdiqlansin.

3. “O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ va Loyiha kompaniyasi o'rtasida tuzilgan Elektr energiyasini sotib olish to'g'risidagi bitim ma'qullansin.